



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)

**2025**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 3 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIysi SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR) .....	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI .....	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI) .....	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI .....	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID .....	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожсамурович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА .....	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI .....	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR .....	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI .....	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	75-82

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	83-96
<i>Abdullahov Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKIOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI .....	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i>	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI .....	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI .....	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH .....	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldasbayev Azizulloh</i>	
BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH .....	153-158
<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНІ .....	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i>	
OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR .....	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ .....	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i>	
YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	184-193
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i>	
IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'iy INTELLEKTNING INSON SALOHIYATIGA TA'SIRI .....	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i>	
QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i>	
UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH .....	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i>	
ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ .....	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i>	
HAJVİYLIKNING PSIXOLOGİK İJTİMOİY-MADANIY VA ESTETİK XUSUSİYATI .....	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI .....	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i>	
HAKIM TERMİZİYNING FALSAFIY TA'LIMOTI .....	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i>	
SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA	
TEATR SAN'ATINING O'RNI .....	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i>	
IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI .....	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i>	
YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING	
UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI .....	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i>	
FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI .....	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i>	
HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING	
HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI .....	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i>	
IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI .....	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i>	
MA'NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIJ TAJRIBASI .....	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i>	
JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIYASINING ZAMONAVIY TAHLILI .....	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbanovich</i>	
YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID	
TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI .....	281-286
<i>Ярлакабов Джамишид Мамасултонович</i>	
СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ	
ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	287-291
<b>10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID	
LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI .....	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI	
LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI .....	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK"	
KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI .....	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i>	
ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN	
YANGI BADIY SHAKLLAR .....	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i>	
NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI .....	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i>	
IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI .....	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i>	
HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI .....	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i>	
STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES .....	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i>	
THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC .....	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i>	
ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA) .....	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI .....	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i>	
CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE .....	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i>	
NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE" .....	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i>	
DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT .....	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i>	
EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHЛИLI .....	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i>	
SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI .....	369-372

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i>	
КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА .....	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i>	
К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ .....	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i>	
QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR .....	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i>	
QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI .....	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i>	
KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI .....	400-407

*Ибрагимова Сабина Эркиновна*  
К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ  
СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО-  
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ..... 408-413

*Avezov Dilshod Sadulayevich*  
MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLİSH MASALALARI  
VA UNING XUSUSIYATLARI ..... 414-418

*Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li*  
VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLİSH  
YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI ..... 419-423

*Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li*  
INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK  
BAZASINING ROLI ..... 424-432

*Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich*  
BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI  
TIZIMINI KUCHAYTIRISH ..... 433-442

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna*  
ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI  
QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 443-449

*Raxmatov Otobek Urinbosarovich*  
“JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI” FANINING BO'LAJAK  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI  
TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI ..... 450-455

*Xamroyev Samijon Salimovich*  
SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI  
SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI ..... 456-461

*Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna*  
TALABALARDA INSHONING MAZMUNIY- MANTIQIY BAYON QILINISHIGA  
DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH ..... 462-467

*Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li*  
ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI  
VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI ..... 468-472

*Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna*  
TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHIDLARDAN  
HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI ..... 473-480

*Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,*  
TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA  
ASOSLANGAN YONDASHUV ..... 481-486

*O'tashev Xasan Nematullayevich*  
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI  
SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI ..... 487-492

*Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li*  
BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI  
VA KASBIY FAZILATLARI ..... 493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i>	
O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI .....	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i>	
PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURSLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI .....	508-518
<i>Qurbanova Bonu Quvondiq qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KITOFGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i>	
O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI .....	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i>	
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR .....	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i>	
MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH .....	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i>	
USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE .....	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i>	
O'QUVCHILARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i>	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI .....	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i>	
JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI .....	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i>	
TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i>	
1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI .....	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i>	
TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	588-593

**Received:** 16 February 2025

**Accepted:** 5 March 2025

**Published:** 20 March 2025

*Article / Original Paper*

## **SOME ISSUES OF REVISING OF NEW CIRCUMSTANCES OF ADJUDICATION, THAT HAS ENTERED INTO LEGAL FORCE**

**Kholov Utkir Shomurodovich,**

Judge of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** In this article Revision of court acts that have entered into legal force on newly discovered cases The institute, its essence, the rules currently established by our national legislation, some issues in this area, their solutions are considered.

**Keywords:** error of judgment, sud hujjati, newly discovered cases, revision of the court document.

## **QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI**

**Xolov Utkir Shomurodovich,**

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudyasi

**Annotation.** Ushbu maqolada qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish instituti, uning mazmun-mohiyati, hozirda milliy qonunchiligidan belgilangan qoidalari, bu boradagi ayrim masalalar, ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** sud xatosi, sud hujjati, yangi ochilgan holatlar, sud hujjatini qayta ko'rish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N59>

**Kirish.** Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish instituti ma'muriy sud ishlarini yuritishda adolatli odil sudlovnii amalga oshirish va qonuniylikni ta'minlashning qo'shimcha kafolati sifatida xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga ko'ra har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabдор shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi [1].

Huquqshunos olim V.V.Yarkov sud hujjatlarini qayta ko'rishning ushbu bosqichi va uning ahamiyati haqida yozar ekan, uning qo'zg'atilishi va keyinchalik qonunbuzilishlarning bartaraf etilishi yuqori sud instansiyalarining aralashuvvisiz, bevosita manfaatdor shaxslarning tashabbusi bilan amalga oshishi mumkinligini qayd etib o'tadi. Sud tomonidan aniqlangan fakt holatlari sud hujjatlarida qayd etilgan barcha oldingi protsessual harakatlarni bekor qiladi va ishni boshidan qayta ko'rib chiqishga olib keladi [2].

Xalqaro huquq normalarida ham ushbu institutning muhimligi, sud xatolariga yo'l qo'yilmasligi, qo'yilgan taqdirda esa, tuzatilishi kerakligi belgilangan. Xususan, "Fuqaroviylar siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro paktning 16-moddasi 4-bandiga ko'ra, "Agar biror-bir shaxs jinoyati uchun uzil-kesil qaror bilan sudlangan bo'lsa va agar biror-bir yangi yoki

yangitdan aniqlangan holatga asosan sud ishida xato borligini shubhasiz isbotlashi tufayli hukm bekor qilinsa yoki o'sha shaxs afv etilsa, shunday sudlov xatosi sababli jazolangan shaxs, agar yuqorida qayd etilgan noma'lum holat faqat uning aybi yoki qisman aybi bilan o'z vaqtida topilmaganligi isbotlanmagan bo'lsa, qonunga muvofiq kompensatsiya oladi [3].

Demak, ma'muriy sud ishlarini yuritishning ushbu mustaqil bosqichi shaxsning sudga murojaat qilish huquqini kafolatlash barobarida, uning buzilgan huquqi qonuniy va adolatli sud qarori asosida tiklanishiga erishishni ta'minlaydi.

**Asosiy qism.** Milliy qonunchiligidan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda sud hujjatlarini apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida qayta ko'rish institutlari mavjud bo'lib, ushbu mexanizmlar orqali sud hujjatining qonuniyligi va asosliligi tekshiriladi, pirovardida qonuniylik va adolat ta'minlanadi.

Shu bilan birga, MSIYtKda sud hujjatini yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rish institutining asoslari, ushbu bosqichda ish ko'rish tartibi belgilangan bo'lsa-da, uning huquqiy definitsiyasi berilmagan.

Shu bois, bu borada huquqshunos olimlarning tadqiqot ishlariga murojaat etish maqsadga muvofiq.

Bu borada doktorlik dissertatsiyasi darajasida izlanish olib borgan olim T.T.Aliyevga ko'ra, **yangi ochilgan holatlar** — bu ishi bo'yicha isbotlash predmetini tashkil etuvchi, ishning qonuniy va asosli hal etilishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, obyektiv voqelikning huquqiy faktlari bo'lib, ular ish ko'rib chiqilgan paytda sud va da'vogarga ma'lum bo'limgan holatlardir.

Ushbu holatlar taraflar tomonidan ko'rsatilgan yoki suda tomonidan aniqlangan bo'lib, yangi ochilgan holatlar asosida qonuniy kuchga kirgan qarorlar, ta'riflar, nazorat instansiyasi prezidiumi qarorlarini qayta ko'rib chiqishdan oldin protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali sudga berilgan ariza yoki taqdimnoma asosida belgilanadi [4].

Yana bir olim S.M.Axmedov shu mavzuda dissertatsiya tadqiqotini o'tkazgan bo'lib, umazkur tushunchani keng va tor ma'noda tushunish kerakligi haqida yozadi.

Muallif "keng" ma'noda yangi ochilgan holatlarning belgilari asoslanib, ularni boshqa huquqiy kategoriyalardan ajratib ko'rsatadi. Shu tariqa, "huquqiy fakt" va "yangi dalil" tushunchalari ajratiladi, chunki ushbu huquqiy kategoriylar turli huquqiy xususiyatlarga ega. Dalil – bu faktlar haqidagi ma'lumotlar bo'lib, ular qonun bilan belgilangan vosita va usullar orqali olinadi. Boshqa tomonidan, yangi ochilgan holatlar esa dalillar yordamida aniqlanadigan faktlarning o'zi hisoblanadi. Shuning uchun yangi ochilgan holatlar – bu huquqiy faktlar bo'lib, ishda isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar tarkibiga kirib, dalillar yordamida aniqlanadi va dalillarga qarshi qo'yiladi, chunki dalillar aynan shu faktlarni aniqlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Sud hujjati qonuniy kuchga kirgandan keyin aniqlangan yangi dalillar esa sud tomonidan avvaldan o'rganilgan faktlar haqidagi yangi ma'lumotlar (axborot), ular haqidagi yangi bilimlar, shuningdek, ularning sud tomonidan ishning dastlabki ko'rib chiqilishi jarayonida aniqlangan faktlar bilan bog'liqligi haqidagi yangi ma'lumotlardir.

Olim "tor" ma'nodagi yangi ochilgan holatlar haqida gapirar ekan, xo'jalik sudlari amaliyotida yangi holatlar paydo bo'lganida, da'vogar sudga yangi ochilgan holatlar asosida sud hujjati qayta ko'rib chiqilishi to'g'risidagi talab bilan murojaat qilgan hollarni keltirib o'tadi.

Muallif bunday noaniqliklarning oldini olish uchun amaldagi qonunchilikka o'zgartishlar kiritishni taklif qiladi. Ushbu o'zgartishlar qonunchilikda "tor ma'noda yangi ochilgan holatlar" tushunchasini aniq belgilash va ularning farqlovchi xususiyatlarini aniqlashni nazarda tutishi kerak [5].

Demak, ma'muriy sud ishlarini yuritishning mazkur bosqichining mazmun-mohiyati – bu ishni qayta ko'rib chiqish masalasini hal qilishdan iborat. Bunda hal etiladigan asosiy masala – bu yangi ochilgan holatlarning bor yoki yo'qligini hal etishdir. Ushbu bosqichda sud hujjatining qonuniyligi vaadolatliligi emas, balki, qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lga taqdirda sud qarorini qabul qilgan sudga o'z qarorini yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rish va shu orqali qonuniy vaadolatli sud qarori qabul qilinishini ta'minlash imkonini beriladi.

Sud hujjatini yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rish apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiylaridan nafaqat vakolatlari bilan, balki, qayta ko'rishning protsessual tartibi bilan ham farqlanadi.

Apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyalari tomonidan quyi instansiya sud qarorlarining qonuniyligi tekshirilsa, yangi ochilgan holatlarga ko'ra arizalar qonuniy kuchda bo'lga sud hujjatini qabul qilgan sud tomonidan ko'rildi.

Shunga ko'ra, nafaqat birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrimi, balki apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiysi sudining sud hujjati o'zgartirilgan yoki yangi sud hujjati qabul qilingan qarorlari va ajrimlari ham yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rish obyekti hisoblanadi.

O'z navbatida sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish vakolati qonuniy kuchda bo'lga sud hujjatini qabul qilgan sudga berilganligidan kelib chiqqan holda birinchi instansiya sudi tomonidan qabul qilingan, qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori, ajrim yangi ochilgan holatlar bo'yicha shu hal qiluv qarorini, ajrimni qabul qilgan sud tomonidan, apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish instansiysi sudining sud hujjati o'zgartirilgan yoki yangi sud hujjati qabul qilingan qarorlari va ajrimlarini qayta ko'rish sud hujjati o'zgartirilgan yoki yangi sud hujjati qabul qilgan instansiya tomonidan amalga oshiriladi.

Qonunda sud hujjatini yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rish asoslari ham qat'iy belgilangan bo'lib, ularni kengaytirilgan talqin qilinishiga qo'l qo'yilmaydi.

Xususan, MSIYtK 269-moddasiga ko'ra, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish uchun:

sud hujjati qabul qilingan paytda mavjud bo'lga, lekin arizachiga ma'lum bo'limgan va ma'lum bo'lishi mumkin bo'limgan, ish uchun muhim holatlar;

ekspertning bila turib yolg'on xulosa bergenligi, guvohning bila turib yolg'on ko'rsatuvarlar bergenligi, bila turib noto'g'ri tarjima qilinganligi sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlangan bo'lsa va ular mazkur ish bo'yicha qonunga xilof yoki asoslanmagan sud hujjati qabul qilinishiga sabab bo'lga bo'lsa;

ishda ishtirok etuvchi shaxsning yoki uning vakilining yoxud sudyaning mazkur ishni ko'rish chog'ida sodir etilgan, sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi bilan aniqlangan jinoiy qilmishlari;

ma'muriy sudning yoki fuqarolik ishlari bo'yicha sudning, jinoyat ishlari bo'yicha sudning yoki iqtisodiy sudning mazkur ish bo'yicha sud hujjatini qabul qilishga asos bo'lga sud hujjati yoxud boshqa organning shunday hujjati bekor qilinganligi asos bo'lishi mumkin.

Tarafning ish mazmunan ko'rilgan vaqtida u yoki bu dalilni taqdim etmaganligi, boshqa tarafda yoki uchinchi shaxslarda saqlanayotgan dalilni talab qilib olish haqida iltimosnama bermaganligi uning o'z protsessual huquqlaridan foydalanmaganligi sifatida baholanishi va bu holat sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishga asos bo'la olmasligi inobatga olinishi lozim.

Sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish subyektlari haqida gapiradigan bo'lsak, ular qayta ko'rib chiqish jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar bo'lib, ularning vakolatlari va protsessual maqomlari qonunchilikda belgilangan.

Sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqida ariza bilan sudga ishda ishtirok etuvchi shaxslar yoki prokuror murojaat qilishga haqlidirlar.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar doirasi MSIYtK 38-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, taraflar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organlari va boshqa shaxslar o'z zimmalariga yuklatilgan vakolatlarga ko'ra ishda ishtirok etuvchi shaxslardan iborat.

Sud hujjatini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish haqida ariza bilan murojaat qilish muddati qonunga muvofiq sud hujjatini qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ochilgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay berilishi lozim.

Ariza berishning o'tkazib yuborilgan muddati, ariza bilan murojaat qilgan shaxsning iltimosnomasi bo'yicha, agar iltimosnama qayta ko'rish uchun asos bo'ladigan holatlar ochilgan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay berilgan bo'lsa va sud muddatni o'tkazib yuborish sabablarini uzrli deb tan olsa, sud tomonidan tiklanishi mumkin.

O'zbekiston sud tizimida ma'muriy sudlar faoliyat ko'rsata boshlaganiga nisbatan qisqa vaqt o'tgan bo'lib, bu sohada sud amaliyoti ham shakllanib bormoqda va albatta bu jarayonda protsessual qonun normalarini qo'llash masalasida savollar vujudga kelishi ham tabiiy hol.

Bunga ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlarini to'g'risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar tomonidan sudga bunday ariza berilishi mumkinmi degan savolni ko'rsatish mumkin.

MSIYtKga muvofiq sud qarorlari ustidan apellyatsiya, kassatsiya va taftish shikoyatlari bilan nafaqat ishda ishtirok etuvchi shaxslar, balki ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlarini to'g'risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar ham murojaat qilishga haqlidirlar.

Shu bilan birgalikda, kodeksda apellyatsiya, kassatsiya va taftish shikoyatlari berishdan farqli ravishda ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan, ammo huquqlari va majburiyatlarini to'g'risida sud hal qiluv qarori qabul qilgan shaxslar sud hujjatini yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rish haqida ariza bilan murojaat qilishga haqli ekanliklari aniq belgilanmagan.

Shu o'rinda bunday shaxslar sud qaroriga nisbatan boshqacha tartibda (apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida) shikoyat keltirish bilan buzilgan huquqlarini tiklashlari mumkinligi haqida qarashlar ham mavjud va bir tomonidan bu fikr bilan ham kelishish mumkin.

Biroq, bunday shaxslar bu huquqdan foydalangan va yuqori instansiya sulari tomonidan ularning shikoyatlari qanoatlantirilmagan yoki sud hujjatlariga nisbatan yuqori instansiya sudiga shikoyat keltirish muddatlari o'tkazib yuborilgan va ushbu shaxslarda qonuniy kuchga kirgan sud hujjatini yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rish asoslari mavjud bo'lgan hollarda bu masala qanday hal etilishi lozim degan savol tug'iladi.

Shuningdek, sud hujjatini yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rish haqida ariza berilgandan yoki berilgunga qadar sud qaroriga nisbatan ishda ishtirok etuvchi shaxslar

tomonidan cassatsiya, taftish tartibida shikoyatlari berilgan taqdirda masala qanday hal etilishi lozimligi masalasida ham amaliyotda ayrim savollar kelib chiqmoqda.

Oliy sud Plenumining fuqarolik va iqtisodiy ishlar bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rishda protsessual huquq normalarini qo'llash masalasida alohida qarorlari qabul qilingan bo'lib, bu esa sudlar tomonidan bunday arizalarni ko'rishda protsessual huquq normalarini bir xilda qo'llanilishini ta'minlashga asos bo'lmoqda.

**Xulosa.** Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlar amaliyotida ham sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlarga ko'ra qayta ko'rish haqidagi arizalar soni oshib borayotganligi, bu institut sud qarorlarining qonuniyligi va asoslilagini ta'minlashning muhim vositalaridan biri ekanligini inobatga olib, ma'muriy ishlar bo'yicha sudlar tomonidan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rishga oid qonun normalarini qo'llash yuzasidan Oliy sud Plenumining qarori qabul qilinishini taqozo etmoqda. Zero, bu amaliyotda vujudga kelayotgan ayrim masalalar yechimini topishga, shuningdek, bu boradagi qonunchilikni yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Yarkov V. V. Juridicheskiye fakti v sivilisticheskem protsesse. M., 2012. S. 427.
3. "Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro pakt / <https://lex.uz/docs/2640479>
4. Aliyev T.T. Proizvodstvo po peresmotru sudebnix postanovleniy vvidu vnov otkryvshixsyu obystoyatelstv v grajdanskem sudoproizvodstve: teoreticheskiye i prakticheskiye aspekti, perspektivы razvitiya. Avtoreferat disser. doktora juridicheskixx nauk. Saratov 20005. S.13-14//
5. Axmedov S. M. Proizvodstvo po peresmotru sudebnix aktov po vnov otkryvshimsya obystoyatelstvam v sisteme peresmotra sudebnix aktov v arbitrajnom protsesse. Avtoreferat diss. na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk. –Moskva, 2008. St.16. //

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 3 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).